

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

No1

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026

yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 683 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiyev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадирова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI.....	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
<i>Yovkochev Sherzod</i>	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
<i>Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li</i>	
MOSH DONINI YANCHIB OLISSHA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
<i>Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich</i>	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
<i>Sarvar Saidov Xayrulloevich</i>	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
<i>Tashov Mizrob Maxmudovich</i>	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
<i>Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich</i>	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
<i>Айматова Фарида Хуразовна</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
<i>Salayeva Dilafro'z Aybekovna</i>	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
<i>Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли</i>	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
<i>Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna</i>	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
<i>Ли Илларион Георгиевич</i>	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
<i>Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li</i>	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
<i>Муталов Абдуазим</i>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
<i>Ermamatov Shonazar Jumakulovich</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
<i>Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich</i>	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
<i>Tuyev Abdurahmon Yusubopvich</i>	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
<i>Yunusova Gulshanoy Umarali qizi</i>	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoir Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruksora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIVOGO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUNARODNIY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTACIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURSLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxe'dov Dilmurod Mirabzalovich	



SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI	522
Jurayev Xusan Atamuratovich	
IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS	528
Sobirov A. Abdurasul	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI	533
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
TECHNOLOGY-DRIVEN VISITOR MANAGEMENT SYSTEMS FOR ENHANCING MUSEUM EXPERIENCE AND PERFORMANCE	539
Ibroximova Aziza Abbasovna	
XALQARO MOLİYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	545
Kurbonbekova Moxichexra Turobjonovna	
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA "AQLLI KON" KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH TAJRIBASI	551
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA STRATEGIK TA'SIRI	556
Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILY VA IQTISODIY XUSUSIYATLARI	562
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ СТРЕЛКОВОГО СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	568
Юсупов И.	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	573
Тарават Абдул-Салам	
MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	581
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARINI JORIY ETISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI	586
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	592
Qurbonova Muazzam Fazliddinovna	
MEHMONXONA SANOATIDA ESG TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI	596
Xusenova Mexrangiz	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH	600
Amirova Dilshoda, Usmonova Shahrinoz Ilhom qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINING ROLINI EMPIRIK JIHATDAN TAHLILI	605
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
NITROGEN FIXATION CHARACTERISTICS OF AZOLLA CAROLINIANA UNDER THE INFLUENCE OF HEAVY METAL (CR ⁶⁺)	610
Sh. Azimov, E. Egamberdiev, S. Turabdajanov	
EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING TA'SIRI	616
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	



«O‘ZBEKNEFTGAZ» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «ESG» STANDARTLARINI JORIY ETISH	622
Ibragimova Saodat Abdumo‘minovna, Xusainov Ravshan Raximovich	
O‘ZBEKISTON SANOATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI DINAMIK TAHLILI	627
Ne‘matov Shoxruxbek Ma‘murjon o‘g‘li	
SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH: KLASSIK VA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR	634
Ugay Darya Sergeevna, Raxmonov Doniyor Ixtiyor o‘gli, Mamanov Alisher Umbarovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INING EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING DINAMIK TAHLILI	642
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	647
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o‘g‘li	
KICHIK BIZNES SEKTOR FAOLIYATI IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	652
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
MINTAQALAR MIQYOSIDA FARMATSEVTIKA SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR MAQSADLARI HAMDA ULARNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	656
O‘taganova Umida Egamberdi qizi	
QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	663
Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO‘QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	667
Ermатов Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
TADQIQOT DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH JARAYONIDA GIPOTEZALARNI SHAKLLANTIRISH, O‘ZGARUVCHILAR TIZIMINI TANLASH VA EKONOMETRIK IDENTIFIKATSIYA STRATEGIYASINI ASOSLASH	671
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li, Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM XIZMATLARI BOZORI HOLATI VA UNING MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH USULLARI	678
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich	



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM XIZMATLARI BOZORI HOLATI VA UNING MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH USULLARI

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Turizm kafedrasini professori, i.f.d., professor.

E-mail: dilshod.x@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozorining hozirgi holati, mavjud rivojlanish imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari hamda asosiy muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatda turizm xizmatlari bozorini baholash va uning muammolarini aniqlashda qo‘llaniladigan tahlil usullari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida turizm xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, turizm, turizm xizmatlari, bozor, turizm xizmatlari bozori, bozor holati, muammolar, tahlil, tahlil usullari.

Abstract. This article analyzes the current state of the tourism services market in the Republic of Uzbekistan, its development opportunities, specific characteristics, and key challenges. The study substantiates the methods used to assess the tourism services market and to identify its existing problems. Based on the research findings, conclusions and practical recommendations aimed at further development of the tourism services market are proposed.

Keywords: Republic of Uzbekistan, tourism, tourism services, market, tourism services market, market state, problems, analysis, analytical methods.

Аннотация. В статье проанализировано современное состояние рынка туристических услуг в Республике Узбекистан, его текущие возможности развития, специфические особенности и ключевые проблемы. Обоснованы методы анализа состояния рынка туристических услуг и выявления его проблем. На основе результатов исследования сформулированы выводы и практические предложения, направленные на развитие рынка туристических услуг в стране.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, туризм, туристические услуги, рынок, рынок туристических услуг, состояние рынка, проблемы, анализ, методы анализа.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda turizm xizmatlari bozori milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki turizm sohasi xizmatlar sektorining rivojlanishi, aholi bandligini oshirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash, eksport xizmatlarini kengaytirish hamda davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimiz boy tarixiy-madaniy merosi, noyob tabiiy resurslari va qulay geografik joylashuvi bilan xalqaro turizm bozorida yetarli salohiyatga ega.

Mazkur yo‘nalishda mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Biroq turizm xizmatlari bozorida qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ularni aniqlash va bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan tahlil usullarini qo‘llash zarur. Chunki turizm xizmatlari bozorining barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish, xususi sektor faolligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozori holati va uning muammolarini tahlil qilish yuzasidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish sharoitida turizm bozori ko‘lamini kengaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni turizm sohasiga jalb etish asosiy masalalardan biri sifatida qayd etilgan [1]. Turizm sohasidagi ushbu masalalar mavjud muammolarni aks ettiradi.



Yana bir qator tadqiqotlarda jahon turizm bozorida yuzaga kelgan muammolar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilib, iqtisodiy-statistik ma'lumotlar asosida tahlillar amalga oshirilgan [2]. Boshqa tadqiqotlarda esa turizm sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini hamda uning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Ya'ni, tadqiqot natijalariga ko'ra, turizm sohasining taraqqiy etishi mamlakat milliy iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [3].

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri tahlil qilingan. Jumladan, turizm sohasining muhim jihatlari tavsiflovchi ko'rsatkichlar, xususan, turistik xizmatlar eksporti hajmi, YalMdagi turizm ulushi, davlat xarajatlari dinamikasi hamda turizm sohasiga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar hajmi va ularning dinamik holati o'rganilgan [4].

Boshqa bir tadqiqotlarda esa COVIDdan keyingi davrda O'zbekiston turizm sanoatining rivojlanishi masalalari tahlil qilingan bo'lib, unda kadrlar bilan bog'liq muammolar hamda mutaxassislar malakasini oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan [5]. Ya'ni, mazkur tadqiqotlarda davlat tomonidan ichki turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar qayd etilgan.

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda sayyohlarning afzalliklari va kutganlari so'rovnoma usuli orqali o'rganilganligi ta'kidlangan. Unga ko'ra, so'rovnoma natijalari sayyohlar O'zbekistonga yetarli axborotga, muayyan motivatsiyaga hamda aniq maqsadli intilishlarga ega bo'lgan holda tashrif buyurishlarini ko'rsatgan [6]. Yana bir qator tadqiqotlarda so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani yoritilgan. Ya'ni, ushbu tadqiqotlarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga qaratilgan asosiy strategiyalar, ularning samaradorligi, shuningdek, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilingan [7].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozori holati va uning muammolarini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmatlari bozori turistik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol qiluvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. O'zbekistonda turizm xizmatlari bozori mehmonxona va joylashtirish xizmatlari, transport xizmatlari (avia-, temir yo'l va avto-), ekskursiya va gidlik xizmatlari, ovqatlanish va savdo xizmatlari, shuningdek, madaniy, ko'ngilochar va sog'lomlashtirish xizmatlari kabi asosiy segmentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu segmentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, turizm xizmatlari bozorining yaxlit tizimini tashkil etadi. Ularning rivojlanish darajasi esa mamlakat turizm sohasining raqobatbardoshligini belgilaydi.

O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, turizm xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni dinamikasi o'zgarib bormoqda. Buni quyidagi rasm orqali kuzatish mumkin. Mazkur 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 7 957,2 ming nafarni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 20,1 % ga oshgan(1-rasm).



1-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi (ming kishi) [8]

Ushbu o'sishning asosiy sabablari sifatida viza rejimining liberallasuvi, elektron viza tizimining joriy etilishi, yangi avia yo'nalishlarning ochilishi hamda turistik infratuzilmaning yaxshilanishi qayd etiladi. Mazkur omillar turistlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ichki turizm ham faol rivojlanib, mahalliy aholining turistik xizmatlarga bo'lgan talabining ortishiga olib kelmoqda.

Turizm xizmatlari bozorini ilmiy tahlil qilish orqali uning real holatini baholash, rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Tahlil natijalari asosida davlat va xususiy sektor uchun samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin. Shu bois, tahlil usullaridan foydalanish turizm siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik usullar turizm sohasidagi miqdoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga xizmat qiladi. Ularga turistlar oqimi dinamikasini tahlil qilish, xizmatlar hajmi va daromadlar tahlili, mehmonxona fondi va bandlik darajasi tahlili, shuningdek, eksport-import xizmatlar ko'rsatkichlarini o'rganish kiradi. Ushbu usullar yordamida turizm bozorining o'sish sur'atlari hamda tarkibiy o'zgarishlari aniqlanadi.

Iqtisodiy tahlil usullari turizm xizmatlari bozorining samaradorligini baholashda qo'llaniladi. Ularga rentabellik tahlili, xarajat va foyda tahlili, investitsiya samaradorligini baholash hamda multiplikativ ta'sirni hisoblash usullari kiradi. Mazkur usullar orqali turizm sohasining milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi aniqlanadi.

SWOT-tahlil turizm xizmatlari bozorining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. PEST-tahlil esa siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarning ta'sirini baholash imkonini beradi. Ushbu usullar strategik rejalashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik so'rovlar, intervyu va anketalash usullari orqali turistlarning ehtiyojlari, qoniqish darajasi va xulq-atvori o'rganiladi. Marketing tadqiqotlari esa bozor segmentatsiyasi, talab prognozini ishlab chiqish va xizmatlarni pozitsiyalashni ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida onlayn bronlashtirish tizimlari, veb-analitika hamda ijtimoiy tarmoqlar tahlili orqali turistik xizmatlarga bo'lgan talab va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mumkin. Ushbu usullar tezkor va aniq ma'lumot olish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozori holati va uning muammolarini tahlil qilish usullari quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida turizm xizmat bozori holati va uning muammolarini tahlil qilish usullari

№	Tahlil qilish usuli	Asosiy mazmuni	Qo'llaniladigan ko'rsatkichlar	Aniqlanadigan muammolar
1	Statistik tahlil	Turizm sohasining dinamikasini o'rganish	Turistlar soni, daromad va xizmatlar hajmi	Sekin o'sish, mavsumiylik
2	Iqtisodiy tahlil	Samaradorlik va foydalilikni baholash	Rentabellik, xarajatlar va investitsiyalar	Quyi iqtisodiy samara
3	Tarkibiy tahlil	Bozor segmentlari ulushini aniqlash	Xizmat turlari va hududlar ulushi	Infratuzilma notekisligi
4	SWOT-tahlil	Ichki va tashqi omillarni baholash	Kuchli va zaif tomonlar	Raqobatbardoshlik darajasining pastligi
5	PEST-tahlil	Makromuhit ta'sirini o'rganish	Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar	Qonunchilik va investitsiya muammolari
6	Marketing tahlili	Talab va iste'molchilar xulqini o'rganish	Qoniqish darajasi va segmentatsiya	Marketing faoliyatining zaifligi
7	Sotsiologik usul	Turistlar fikrini o'rganish	So'rovnoma va intervyular	Xizmat sifatining pastligi
8	Raqamli tahlil	Onlayn ma'lumotlarni tahlil qilish	Bronlashtirish va veb-trafik	Raqamlashtirish darajasining pastligi
9	Qiyosiy tahlil	Xalqaro tajriba bilan solishtirish	Indeksar va reytinglar	Global bozorda o'rinning pastligi
10	Investitsiya tahlili	Loyihalar samaradorligini baholash	Investitsiyalar qaytimi va qaytarish muddati	Investorlar qiziqishining kamligi

Mazkur 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozorining hozirgi holatini va uning asosiy muammolarini kompleks baholashda qo'llaniladigan tahlil usullari tizimlashtirilgan. Statistik va iqtisodiy tahlil usullari turizm sohasining real holatini, o'sish sur'atlarini hamda moliyaviy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu usullar yordamida turistlar oqimi, xizmatlar hajmi va daromadlar dinamikasi baholanadi.



SWOT- va PEST-tahlillar turizm xizmatlari bozoriga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur usullar strategik qarorlar qabul qilish, davlat siyosati va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish uchun asos yaratadi. Marketing va sotsiologik tadqiqot usullari orqali turistlar ehtiyojlari, xizmatlar sifati va bozor talablari o'rganiladi, bu esa turistik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli va qiyosiy tahlil usullari esa zamonaviy turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari bozori katta salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun statistik, iqtisodiy, strategik, marketing va raqamli tahlil usullarini kompleks qo'llash zarur. Ilmiy asoslangan tahlil natijalari turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotida turizm sohasining ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil usullarini kompleks qo'llash O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, sohani barqaror rivojlantirishning ilmiy-amaliy asosini shakllantiradi. Natijada milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova F.K. Xalqaro turizm bozori: "Marketing (turizm)" yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / F.K. Kornilova, Z.K. Kamilov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 5–6 b.
2. Shovdirov T.N. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning jahon tajribasi, muammo va istiqbollar // Builders of the Future. – 104–111-betlar.
3. Mirzabayev J.I. O'zbekistonda turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari // Journal of Marketing, Business and Management, 2024, Volume 3, Issue 6 (November). – 24–28 b.
4. Bahodirov Sh.B. O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, No 5 (3), 2023. ISSN: 2181-1342. – 134–143 b.
5. Azizova N.T., Mamasobirova G.D., Karimova G.M. Otsenka i perspektivy razvitiya sovremennogo turisticheskogo rynka Uzbekistana // Universum: texnicheskije nauki, № 10 (115), oktyabr, 2023-yil. – 1–6-betlar.
6. Kucharov A., Ochilova Kh. Analysis of the development of tourism in Uzbekistan // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2019. – 2-bet.
7. Tashov M. Analysis of strategic directions for tourism development in Uzbekistan // Zamonaviy fandagi modellar va usullar, 2025, 4(4). – 106–112-betlar. Olingan manba: <https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/82126>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. – https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3695&Itemid=100000000000

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100